



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

OGAHIIY IJODIDAGI AXLOQIY QADRIYATLAR TIZIMINING GERMENEVTIK INTERPRETATSIYASI

Shavkatov Sherali Shavkatovich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada Muhammad Rizo Ogahiy ijtimoiy-falsafiy qarshlaridagi axloqiy qadriyatlar tizimi hermenevtik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Mutafakkirning nazmiy va nasriy asarlaridagi “adolat”, “sadoqat”, “fidoiylilik”, “sabr-qanoat” kabi axloqiy qadriyatlar haqidagi qarashlari ilmiy jihatdan ochib beriladi. Shuningdek, ijodkor dunyoqarashidagi axloqiy qadriyatlarning hermenevtik interpretatsiyasi atroflicha ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: qadriyat, hermenevtika, interpretatsiya, “hermenevtik doira” adolat, adolatsizlik, sadoqat, fidoiylilik, shaxs, jamiyat, ideal davlat.

ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СИСТЕМЫ НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ТВОРЧЕСТВЕ ОГАХИЙ

Шавкатов Шерали Шавкатович

Ташкентский государственный университет востоковедения, базовый докторант

Аннотация

В статье с герменевтической точки зрения анализируется система нравственных ценностей в социально-философских взглядах Мухаммада Риза Агахий. Научно раскрываются взгляды мыслителя на такие нравственные ценности, как «справедливость», «верность», «самоотверженность», «терпение и довольство», отражённые в его поэтических и прозаических произведениях. Также всесторонне рассматривается герменевтическая интерпретация нравственных ценностей в мировоззрении творца.

Ключевые слова: ценность, герменевтика, интерпретация, «герменевтический круг», справедливость, несправедливость, верность, самоотверженность, личность, общество, идеальное государство.

HERMENEUTIC INTERPRETATION OF THE SYSTEM OF MORAL VALUES IN THE WORKS OF OGAIY

Shavkatov Sherali Shavkatovich

Tashkent State University of Oriental Studies, Basic Doctoral Student

Abstract

The article analyzes the system of ethical values in Muhammad Riza Agahi's socio-philosophical views from a hermeneutic perspective. The thinker's views on such ethical values as “justice,” “loyalty,” “self-sacrifice,” and “patience and contentment,” reflected in his poetic and prose works, are scientifically elucidated. In addition, the hermeneutic interpretation of ethical values in the creator's worldview is examined comprehensively.

Keywords: value, hermeneutics, interpretation, “hermeneutic circle,” justice, injustice, loyalty, self-sacrifice, personality, society, ideal state.

Axloqiy qadriyatlar tushunchasi insoniyat tafakkuri tarixida eng qadimiy va muhim kategoriyalardan biri sifatida shakllanib kelgan. Inson o‘zini anglash jarayonida nafaqat moddiy ehtiyojlarini qondirish, balki axloqiy tamoyillarni ham shakllantirish zaruratiga duch kelgan. Shu

bois qadimiy jamiyatlardan tortib, bugungi zamonaviy ijtimoiy tuzumlargacha axloqiy qadriyatlar shaxsiy hayot, ijtimoiy munosabatlar va jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib qolgan. Qadriyatlar — bu inson va jamiyat hayotini tartibga soluvchi mezonlar bo'lib, ular inson xatti-harakatlariga ma'no beradi, yo'nalish beradi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shu sababli qadriyatlar masalasi qadimgi Yunoniston falsafasidan tortib Sharq mutafakkirlariga, Yangi davr faylasuflaridan tortib zamonaviy ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalarga qadar uzluksiz ravishda tadqiq etilib kelmoqda.

Antik falsafada qadriyatlar tushunchasining shakllanishi, avvalo, Suqrot, Platon va Aristotel qarashlari bilan bog'liq. Suqrot qadriyatlarni insonning axloqiy mohiyati bilan bog'lagan. U “o'zingni bil” degan hikmati bilan insonning o'z qalbini, axloqiy burchini anglashini qadriyat sifatida ko'rsatgan. Platon esa qadriyatlarni “g'oyalar dunyosi” bilan bog'lab, ularni abadiy va o'zgarmas ideal sifatida talqin qilgan. Unga ko'ra, adolat, ezgulik, go'zallik kabi qadriyatlar ilohiy g'oyalardir va inson ularni faqat ong orqali anglay oladi. Aristotel esa qadriyatlarni yanada amaliy asosda tushuntirgan. Uning fikricha, insonning eng oliy qadriyati — bu eudaimoniya, ya'ni baxt-saodatga erishishimizda yordam beradiganidir [2; 254]. Biroq bu baxtga faqat axloqiy fazilatlar va jamiyat bilan uyg'unlik orqali erishish mumkin. Shu tariqa, antik falsafada qadriyatlar insonning axloqiy va ijtimoiy mohiyati bilan bevosita bog'liq holda shakllanadi.

Sharq mutafakkirlari qadriyat tushunchasini diniy-axloqiy mezonlar asosida chuqurlashtirdilar. Forobiy “Fozil shahar” konsepsiyasida qadriyatlarni fazilat bilan bog'lab, fazilatli jamiyatni asosiy ideal sifatida ko'rsatdi. Uning nazarida, axloqiy qadriyatlar hukmdor va xalqning fazilatli bo'lishi orqali jamiyatda qaror topadi. Farobiy “...agar bu jarayon birlik-birdamlikni idrok etishiga olib keladigan bo'lsa, u holda turli hayot tarzidagi odamlarni, katta, obro'li oilalarning tabarruk yoshdagi otalar va farzandlarning farog'at keltiradigan qonunlar yaratishga majbur etadi” [1; 29], deb yozadi. Ibn Sino axloqiy qadriyatlarni ilm, ong va ruhiy poklik bilan bog'ladi. Unga ko'ra, insonning haqiqiy qadriyati — bu uning ma'naviy kamolotidir. Beruniy esa qadriyatlarni ilmiy kuzatishlar orqali asoslab, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni qadriyat sifatida talqin qildi. Alisher Navoiy esa qadriyatlarni adolat va insoniylik tamoyillari bilan uyg'unlashtirib, ularni jamiyat barqarorligining poydevori sifatida ko'rsatdi [7; 195]. Uning she'riyatida halollik, sadoqat, insonparvarlik kabi qadriyatlar ulug'langan, xiyonat va zolimlik esa qattiq tanqid qilingan.

G'arb falsafasida qadriyatlar tushunchasi Yangi davrda yangi bosqichga ko'tarildi. Immanuel Kant qadriyatlarni “kategorik imperativ” orqali talqin qildi [3; 112]. Uning nazarida, insonning eng oliy qadriyati — bu uning axloqiy qonunlarga bo'ysunish qobiliyatidir. Har bir inson shunday amal qilishi kerakki, uning harakati umumiy qonun sifatida qabul qilinsin. Gegel esa qadriyatlarni obyektiv ruh konsepsiyasi bilan bog'lab, ularni jamiyatning tarixiy taraqqiyotining natijasi sifatida ko'rsatdi. Shopenhauer qadriyatlarni inson irodasi bilan bog'lab, axloqiy hayotning markaziga rahm-shafqatni qo'ydi. Bu qarashlar qadriyatlarni turlicha talqin qilsa-da, ularning barchasi insonning axloqiy mohiyatini ochishga qaratilgan.

Professor I. Saifnazarov qadriyatlar tushunchasiga: “Milliy-ma'naviy qadriyatlar — murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jami ma'naviy boyliklarini qamrab oladi” [12; 10] - deb ta'rif beradi. “Falsafa ensiklopedik lug'ati”da esa qadriyat tushunchasi shunday izohlangan: “Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma'rifat, madaniyat, moddiy va ma'naviy boyliklar, qobiliyatlar, go'zallik, axloqiy xislat va fazilatlar, an'ana, urf-odat, udum va boshqalar — axloqiy qadriyat hisoblanadi” [6; 336]. Professor Q. Nazarovning ilmiy-tadqiqot ishlarida esa qadriyatlar tushunchasiga kengroq yondashilinadi va uning mazmun-mohiyati, strukturasi, asosiy shakllari va paydo bo'lish xususiyatlari keng tahlil qilinadi: “... qadriyat biror bir tarzda va shaklda zohir bo'ladigan, subyekt uchun muayyan ta'sir qiladigan voqelikning turli-tuman shakllari, ko'rinishlari, narsalar, hodisalar, jarayonlar,

munosabatlar, turli sifatlar, xususiyat, axloq va ma'naviylik mezonlari hamda boshqalarning subyekt uchun ijtimoiy ahamiyati va qadrini ifodalaydigan umumiy aksiologik kategoriyadir" [11; 31].

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, qadriyatlar tushunchasi Sharq va G'arb falsafasida turlicha talqin qilinsa-da, ularning mohiyati umumiydir. Sharqda qadriyatlar ko'proq diniy-axloqiy tamoyillar bilan bog'langan bo'lsa, G'arbda ular huquqiy va ijtimoiy tartiblar bilan izohlangan. Biroq har ikkala an'anada ham qadriyatlar insonning axloqiy mohiyatini, uning jamiyat va tabiatdagi o'rnini belgilashga qaratilgan. Ogahiy esa bu an'analarni o'z asarlarida uyg'unlashtirib, qadriyatlarni tarixiy saboqlar va badiiy obrazlar orqali talqin qiladi. Shu bois uning qarashlari qadriyat tushunchasining universal talqinini yaratadi.

Axloqiy qadriyatlar tizimini o'rganishda germevntika metodining qo'llanishi alohida ahamiyatga ega. Germevntika — bu matnlarni izohlash, ularning yashirin ma'nolarini ochib berish san'ati va metodologiyasi. Ogahiy asarlari, ayniqsa, she'riy matnlari ramziy va metaforik obrazlarga boy bo'lgani uchun ularni germevntik yondashuvsiz to'liq anglab bo'lmaydi. Masalan, "Ta'viz ul-oshiqin"dagi oshiq-ma'shuqa obrazlari nafaqat muhabbat mavzusini, balki sadoqat, halollik va burch tushunchalarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Tabiat obrazlari esa insonning ma'naviy holatini, jamiyatdagi tartib va disharmoniyani ramziy tarzda ifodalaydi. Shu sababli germevntika Ogahiy ijodidagi axloqiy qadriyatlarni chuqurroq ochishga yordam beradi.

Axloqiy qadriyatlarning germevntik interpretatsiyasi Ogahiy merosini zamonaviy falsafiy tafakkur bilan bog'lash imkonini ham beradi. Bugungi kunda O'zbekiston jamiyatida ma'naviyat, axloqiy mas'uliyat va fuqarolik burchi masalalari alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ogahiy qarashlari bu masalalarni tarixiy kontekstda yoritib, zamonaviy jamiyat uchun ham saboq bo'lib xizmat qiladi. Masalan, uning adolat haqidagi g'oyalari bugungi ijtimoiy islohotlar bilan uyg'unlashadi, tabiat oldidagi mas'uliyat haqidagi qarashlari ekologik muammolar bilan hamohang bo'ladi, shaxs va jamiyat o'rtasidagi burch munosabatlari esa fuqarolik jamiyatini qurish g'oyalari bilan chambarchas bog'liq. Shu jihatdan Ogahiy merosini germevntik yondashuv asosida o'rganish ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham muhimdir.

USLUBLAR. METHODS. МЕТОДЫ

Muhammad Rizo Ogahiy ijodidagi axloqiy qadriyatlar tizimini tahlil qilish va undagi germevntik interpretatsiyasi jarayonini aniqlash uchun turli xil metod va usullardan foydalanildi. Jumladan uning nasriy va nazmiy asarlari germevntik jihatdan tahlil qilindi. Undagi falsafiy g'oyalaridagi adolat, sadoqat, halollik, sabr, fidoyilik kabi qadriyatlar tizimini ochib berishda qiyosiy tahlil usullari, shuningdek, biografik va ideografik yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida dialektika, interpretatsiya va germevntika usullaridan foydalanish bilan birga, uning obyektivlik, mantiqiylik va tarixiylik tamoyillariga tayanildi.

MUHOKAMA. DISCUSSION. ОБСУЖДЕНИЕ

Muhammad Rizo Ogahiy ijodida axloqiy qadriyatlar tizimi alohida o'rin egallaydi. U tarixiy voqealarni yoritishda ham, she'riy obrazlar yaratishda ham axloqiy mezonlarni asosiy nuqtaga qo'yadi. Ogahiy uchun tarix faqat voqealar ketma-ketligi emas, balki inson va jamiyat uchun saboq manbai bo'lishi kerak. Shu sababli uning asarlarida hukmdorlarning adolati yoki zolimligi, xalqning birdamligi yoki beparvoligi, shaxslarning fidoyiligi yoki xiyonati doimo axloqiy qadriyatlar nuqtai nazaridan baholanadi. Ogahiy ijodida adolat, sadoqat, halollik, sabr, fidoyilik kabi qadriyatlar ulug'lanadi, xiyonat, zolimlik, yolg'onchilik kabi illatlar esa tanqid qilinadi. Shu jihatdan uning asarlari faqat tarixiy manba emas, balki axloqiy qo'llanma vazifasini ham bajaradi.

Ogahiy asarlarida eng ko'p uchraydigan g'oya bu axloqiy qadriyatlarning jamiyat barqarorligi va shaxsning ma'naviy kamolotidagi o'rni masalasidir. U tarixiy voqealarni yozarkan, ularni adolat, sadoqat, halollik, sabr-toqat, fidoyilik kabi qadriyatlar nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Shu bilan birga, xiyonat, zolimlik, yolg'onchilik, beparvolik kabi salbiy qadriyatlarni tanqid qiladi va ularning jamiyat hayotiga salbiy ta'sirini ochib beradi [10; 375].

Ogahiy ijodida axloqiy qadriyatlarning markazida adolat qadriyati turadi. Unga ko'ra, adolat jamiyatning barqarorligini ta'minlovchi asosiy tamoyildir. Adolat hukmdor va xalq, shaxs va jamiyat o'rtasidagi barcha munosabatlarda asosiy mezon bo'lishi zarur. Adolatli hukmdor xalqni barqarorlikka olib boradi, adolatsiz hukmdor esa jamiyatni inqirozga duchor qiladi. Shu bois Ogahiy tarixiy voqealarni yoritarkan, hukmdorlarning faoliyatini doimo adolat mezonida baholaydi. Masalan, "Firdavs ul-iqbol" asarida hukmdorlarning adolatli yoki zolimligi jamiyat taqdirini belgilovchi asosiy omil sifatida ko'rsatiladi. Bu yondashuv Navoiy ijodidagi adolat paradigmasi bilan hamohangdir [5; 83].

Sadoqat qadriyati ham Ogahiy ijodida alohida o'rin tutadi. U sadoqatni nafaqat shaxsiy munosabatlarda, balki ijtimoiy hayotda ham eng muhim qadriyat sifatida talqin qiladi. Sodiq amaldorlar, vatan uchun jonini fido qilgan fidoyilar Ogahiy asarlarida ulug'lanadi. Ular jamiyatning axloqiy tayanchi sifatida ko'rsatiladi. Aksincha, xiyonat qilgan shaxslar qattiq tanqid qilinadi. Bu yondashuv orqali Ogahiy sadoqatni jamiyat barqarorligi uchun zaruriy qadriyat sifatida ko'rsatadi [17;123].

Halollik qadriyati Ogahiy ijodida insonning shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi eng muhim fazilat sifatida talqin etiladi. Unga ko'ra, halol inson jamiyatda ishonch uyg'otadi, u jamiyatning axloqiy muhitini mustahkamlaydi. Halollik faqat moddiy munosabatlarda emas, balki ma'naviy hayotda ham zarur. Ogahiy halol bo'lmagan hukmdorlarni, adolatsiz amaldorlarni tanqid qilib, ularni jamiyatning inqiroziga sababchi sifatida ko'rsatadi. Bu yondashuv G'arb falsafasida Kantning "halollik universal qonun" degan tamoyili bilan uyg'unlashadi.

Sabr-toqat qadriyati ham Ogahiy ijodida alohida ta'kidlanadi. Inson hayotida qiyinchiliklar muqarrar, biroq ularni sabr bilan yengish axloqiy yetuklikning belgisi hisoblanadi. Ogahiy tarixiy voqealarni yoritarkan, sabrli va bardoshli shaxslarni ulug'laydi, sabrsiz va loqayd kishilarni esa tanqid qiladi. Bu qadriyat uning she'riyatida ham keng ifodalangan. "Ta'viz ul-oshiqin"da sabr muhabbatning, fidoyilikning ajralmas qismi sifatida ko'rsatiladi.

Fidoyilik qadriyati Ogahiy ijodida jamiyat barqarorligi va insonning yuksak ma'naviy darajasini belgilovchi mezon sifatida talqin qilinadi. Fidoyi inson o'z manfaatlarini emas, balki jamiyat manfaatlarini tanlaydi. Vatan uchun jonini fido qilgan qahramonlar Ogahiy tarixiy asarlarida yuksak ehtirom bilan yod etiladi. Fidoyilik uning nazarida jamiyatning axloqiy barkamolligini ta'minlaydigan qadriyatdir.

Ogahiy ijodida axloqiy qadriyatlarning qarama-qarshi juftliklari ham ko'p uchraydi. Adolat – zolimlik, sadoqat – xiyonat, halollik – yolg'onchilik, fidoyilik – manfaatparastlik kabi dualistik munosabatlar uning asarlarida keng yoritiladi. Bu qarama-qarshiliklar jamiyat hayotidagi asosiy ziddiyatlarni ifodalaydi. Ogahiy bu ziddiyatlarni nafaqat tasvirlaydi, balki ularning saboqlarini ham chiqaradi. Ijobiy qadriyatlar jamiyatni mustahkamlaydi, salbiy qadriyatlar esa uni inqirozga olib keladi. Shu orqali u tarixni falsafiy mushohada vositasiga aylantiradi.

Ogahiy ijodidagi qadriyatlar tizimi matnlardagi ramzlar va timsollar orqali yanada chuqurroq talqin qilinadi. She'riy asarlardagi oshiq va ma'shuqa obrazlari sadoqat, fidoyilik, halollik kabi qadriyatlarni ramziy tarzda ifodalaydi. Tabiat obrazlari esa inson qalbining axloqiy holatini, jamiyatdagi uyg'unlik yoki disharmoniyani ramziy tarzda ko'rsatadi. Tarixiy asarlardagi voqealar esa jamiyatning axloqiy saboqlari sifatida talqin qilinadi.

Shu tarzda, Ogahiy ijodida axloqiy qadriyatlar tizimi universal mazmun kasb etadi. U qadriyatlarni Sharq falsafiy an'analaridan meros qilib olgan, lekin ularni o'z davrining tarixiy sharoitlari bilan boyitgan. Natijada uning qarashlari bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Chunki zamonaviy O'zbekiston jamiyatida ham adolat, sadoqat, halollik, sabr-toqat va fidoyilik kabi qadriyatlar barqarorlik va taraqqiyotning asosiy omillari sifatida qaralmoqda.

NATIJALAR. RESULTS. РЕЗУЛЬТАТЫ

Ogahiy axloqiy qadriyatlarni ifodalashda bitta qatlam bilan cheklanmaydi: u qadriyatni ijtimoiy-tarixiy voqelik bilan bog'laydi. Badiiy matnning ichki semantik mexanizmlari (radif, qofiya, tazod, tashxis, isti'ora, talmeh, tajnis va h.k.) orqali uni sezdiradi va, nihoyat, o'quvchi

bilan ma'no muhokamasi (germenevtik doira)da qayta-yangidan quradi. Shuning uchun Ogahiydagi "adolat", "halollik", "sadoqat", "sabr", "fidoyilik", "haya", "insof", "vazminlik", "vafodorlik" singari ijobiy qadriyatlar ham, "zulm", "riyo", "tamagirlik", "hasad", "xiyonat" singari salbiy qadriyatlar ham doimo kontekstda, munosabat maydonida ko'rinadi. Germenevtik yondashuvda bu narsa "ma'noning voqeiyiligi" (Wirkungsgeschichte) [4;23] sifatida ta'riflanadi. Ya'ni, qadriyatlar matndan tashqaridagi hayotga, siyosiy qarorlar, ijtimoiy tarangliklar, tabiat hodisalari, iqtisodiy vaziyatga bog'lanadi. Matn esa ana shu "hayotiy oqim"ni o'z semantik tartibiga solib, o'quvchiga anglash rejimini taklif qiladi.

Adolat qadriyati Ogahiy dunyoqarashida gorizontal va vertikal o'qlarni bog'lovchi "markaziy nuqta" vazifasini bajaradi: gorizontal o'qda u jamiyat ichidagi munosabatlar: hukmdor-ra'iyat, amaldor-oddiy fuqaro, boy-kambag'al o'rtasidagi muvozanatni normativlashtiradi. Vertikal o'qda esa "ilohiy qanoat" va "vijdon qonuni"ni jamiyat tartibi bilan chirmashtiradi. Shu sababli adolat Ogahiyda shunchaki "ezgulik ideali" emas, balki ijtimoiy tartibning me'yoriy asosi, "haq-nohaq"ni ajratuvchi mezon sifatida ishlaydi. Bu esa hukmdor qarorining ra'iyat qalbidagi aks-sadosini, soliqlarni oshirishning esa bozor va turmushdagi "ko'rinmas oqibatlarini"ni (narx-navoning o'zgarishi, norozilik kayfiyati, qo'zg'olon ehtimoli) idrok qilish demakdir. Bu yerda axloqiy qadriyat faqat nazariy g'oya emas, balki ijtimoiy dinamikaning asosiy kategoriyasiga aylanadi.

Ogahiy tafakkurida halollik va sadoqat qadriyatlari doimo qarama-qarshiliklar orqali ochiladi. "Do'st-dushman", "yor-g'anim", "umr-davr" kabi tazodli o'qlar ularning ichki mohiyatini yoritadi. Sadoqat, bir tomondan, vaqtga nisbatan kechikmaslik, qalbning hiylasiz qarori, vafoni irsiy tutum sifatida barqarorlashtirish timsolida tushuntiriladi. Boshqa tomondan esa jamiyat ishonch kapitalini ko'paytiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Halollik esa qonuniy yo'lga sadoqatning o'zi bo'lib, manfaatni me'yor bilan o'lchashni, "o'ziga qat'iy, boshqalarga nozik" bo'lish mezonini bildiradi.

Germenevtik yondashuvda bu qadriyatlar Ogahiy baytlarida radif va qofiya tanlovi orqali mustahkamlanadi. "Vafa", "sadoqat", "sobitlik" semantik qatori doimo "fasod", "xiyonat", "riyo" qatoriga qarshi qo'yiladi. O'quvchi misradagi sintaktik simmetriyani anglar ekan, u faqat so'zning go'zalligini emas, balki axloqiy tarozining qaysi tomonga og'ir bosayotganini ham sezadi. Bu sezgi matndan boshlab g'azal, devon va nihoyat tarixiy-madaniy kontekstdagi ma'noga yoyiladigan germenevtik halqa tarzida ishlaydi.

Ogahiyda sabr oddiy sabr emas, balki ikki xil rejimda harakat qiluvchi ruhiy-intizomdir. Birinchi qatlam "imtihon va sinov" semantikasi. Bu iztirobni ma'noga aylantirish, vaqtni tarbiya quroliga aylantirish, ichki bo'shliqni kuch manbaiga aylantirish jarayonidir. Ikkinchi qatlam esa "muvozanat" semantikasi. Jamiyat beqarorlikka yuz tutganida ham, shaxsiy iztirob bilan ijtimoiy to'qnashuv kuchayganida ham sabr "ichki to'xtash", ehtiyotkorlik etikasi sifatida qaror topadi.

Demak, Ogahiy uchun sabr passiv bo'ysunish emas, balki "ongli kechiktirish", "jarayonni kuzatib, to'g'ri damda to'g'ri so'z aytish" san'atidir. Shu nuqtada sabr bilan sukutning farqi ochiladi. Sukut ba'zan ehtiyotkor nutqning shakli bo'lsa, ba'zan mas'uliyatsiz indamaslikka ham aylanadi. Germenevtik nuqtai nazardan sabr matn ichida "vaziyatga nisbatan intizom" sifatida o'qiladi va bu intizom Ogahiy tafakkurida insonni jamiyatga, vaqtni esa ma'naviy taroziga aylantiradi.

Fidoyilik qadriyati Ogahiyda "qahramonlik"dan torroq ham, kengroq ham emas. Chunki u harbiy jasorat bilan cheklanmaydi, balki kengroq ma'noda "o'z nafsi"ni yengish, "manfaat ko'zgusini xira qilish" etikasi bilan uzviy bog'lanadi.

Ogahiy qadriyatlarni musbat va manfiy qatorlar bilan ifoda etar ekan, salbiy qatorni ko'rsatishda o'tkir, ko'pincha ironik-satirik usullarni ishga soladi. Zolimlik "qulflangan ong", "qo'rquvdan o'sib chiqqan jasoratni" bo'g'uvchi kuch sifatida tanqid qilinadi. Riyo "so'z va niyat orasidagi bo'shliq", "tashqi ibo va ichki hirs" o'rtasidagi yoriq sifatida fosh qilinadi. Tamagirlik

esa “beqaror jamiyat iqtisodiyoti”ning xunuk odati sifatida qoralab ko‘rsatiladi. Bularning bari faqat axloqiy metafizika darajasida emas, balki ijtimoiy pragmatika darajasida ham tahlil qilinadi. Birgina misol agar hukmdor zolim bo‘lsa xalqning unga nisabatan qarashi o‘zgaradi va hukmdorning siyosiy legitimligiga putur yetadi. Natijada barqarorlikning “ko‘rinmas ustunlari” sinadi.

XULOSA. CONCLUSIONS. БЫБОДЫ

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Xorazm adabiy maktabida shakllangan masnaviy va g‘azalchilikning didaktik kuchi, tarixiy rivoyatlarning poetik hamohangligi, tarjima madaniyatining boyligi Ogahiyga semantik boy fond berdi. Bu fond ichida, masalan, Xorazmiyning “Gulshan ul-asror”i bilan bo‘ladigan ko‘rinar–ko‘rinmas bog‘lanishlar (didaktik rux, hikmatga yo‘naltirilgan obrazlar, ibratli siymolar) Ogahiy ijtimoiy-falsafiy qarashlaridagi “qadriyatlar chizgisi”ni qalinlashtirdi.

Shunday qilib, Ogahiy ijodida axloqiy qadriyatlar tizimi badiiy, tarixiy va diniy–falsafiy qatlamlar chorrahasi sifatida namoyon bo‘ldi. Ogahiy axloqiy qadriyatlarni ikki asosiy korpus: tarixiy xronika va lirika orqali ko‘rsatib berdi. Tarixiy matnlarida qadriyatlar “oqibatlar zanjiri”da, ya’ni siyosiy qaror, ijtimoiy ta’sir va axloqiy baho ko‘rinishida tahlil qilinadi. She’riyatida esa ular badiiy–ramziy registrda ishlaydi: obraz, ritm, tazod, radif, talmeh va tashxislar orqali “ko‘rinadigan” ma’noga aylanadi. Har ikki jihatda ham umumiy metod bo‘lgan normativ anglash (voqea va kechinmaning ma’nosi) axloqiy mezonga bog‘lanadi va o‘quvchiga tanlov mas’uliyati sifatida qaytariladi.

Ogahiyning xronik uslubi “shunchaki sanash” emas, balki axloqiy diagnostikadir. U hukmdor siyosatini iqtisodiy ko‘rsatkichlar (hosil, soliqlar, qo‘shin ta’minoti), ijtimoiy kayfiyat (norozilik, birdamlik, isyon ehtimoli) va diniy–axloqiy mezon (adl–zulm, haq–nohaqlar orqali baholaydi. Masalan, suv taqchilligi, qurg‘oqchilik yoki toshqin kabi tabiiy hodisalar tasviri darhol mas’uliyat muammosiga ulanadi. Sug‘orish tarmoqlarini e’tiborsiz qoldirish esa xo‘jalikning izdan chiqishi va narx-navoning oshishiga olib keladi. Natijada xalq orasida norozilik, siyosiy beqarorlik avj oladi. Bu zanjir orqali “adl” faqat metafizik ideal emas, balki barqarorlik texnologiyasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Adolatli soliq tizimi, jamoat ishlarini (obikorlik, ko‘prik, ariqlar) to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, himoya va taqsimotning me’yorini saqlash ushbu beqarorlikning oldini oladi. Shu tarzda Ogahiy adolatni “qulaylik” yoki “ko‘ngilchanlik” deb emas, balki jamiyat mexanikasining muvozanat qonuni deb talqin qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Nasr Forobiy Fozil odamlar shahri. - T.: Yangi asr avlodi, 2016.
2. Arastu Axloqi kabir. - T.: Yangi asr avlodi, 2015. -B. 254.
3. Carter J. Moral religion: The later Ricoeur’s hermeneutics of ethical life: DPhil Thesis in Theology. - University of Oxford, 2011. - 218 p.
4. Dieter Teichert Verstehen und Wirkungsgeschichte. - Bonn: Bouvier Verlag, 2000. - 41 s.
5. Doschanova U. XIX asr Xorazm mutafakkirlari dunyoqarshlarida gumanistik g‘oyalar: diss... fal. fan. nomz. – Toshkent, 2011.
6. Falsafa: ensiklopedik lug‘at. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010.
7. Gulova A.A. Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlarida umuminsoniy qadriyatlar masalalari: diss. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). - Buxoro, 2022. - 159 b.
8. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy. Zubdatu-t-tavorix // Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, izoh va ko‘rsatkichlar muallifi N. Jabborov. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 240 b.
9. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy Asarlar. I jild. // Nashrga tayyorlovchi: G‘ulom Karim, muharrir: Subutoy Dolimov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1971. – 392 b.

10. Muhammad Rizo Mirob Erniyozbek o'g'li Ogahiy Asarlar. II jild. // Nashrga tayyorlovchi: G'ulom Karim, muharrir: Subutoy Dolimov. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. – 418 b.
11. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2023. – 920 b.
12. Saifnazarov I., Sa'dullayeva F. Milliy qadriyatlarning ma'naviy asoslari. – T.: Mehnat, 1997.
13. Shavkatov Sh. Sh. Komil insonni shakllantirishda Ogahiy ijodining ta'siri – Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022. – № 9.
14. Shavkatov Sh. Sh. Muhammad Rizo Ogahiy ijodidagi antropologik qarashlar. – Falsafa va huquq, 2023. – № 2.
15. Shavkatov Sh. Sh. Muhammad Rizo Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” asarida falsafiy g'oyalar: insonning tabiati, axloqi va jamiyatdagi o'rni. - International scientific journal of Biruni, 2023. – № 1/2.
16. Shavkatov Sh. Sh. Ogahiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida “adolat” kategoriyasining germenevtik tahlili. - “XXI asr: fan va ta'lim masalalari” ilmiy elektron jurnali, 2024.
17. Сафарбоев М. Агахи – поэт и мыслитель. –Т.: УрГУ, 2007.